



**“Jismoniy shaxslar uchun Internetga keng polosali ulanish tariflariga
va IP-telefoniya xizmatlari tariflariga izohlar”**

Tariflarning umumiy shartlari

- Tariflar faqat uydan foydalanish uchun mo‘ljallangan – xizmatlar ko‘rsatilgan manzil uyjoy fondida ro‘yxatga olingan bo‘lishi kerak, shartnomha faqat jismoniy shaxs bilan tuziladi. Taqdim etilayotgan xizmatning uydan tashqarida foydalanilayotgani aniqlanganda, Kompaniya Abonentni oldindan ogohlantirmagan holda, darhol xizmatni o‘chirib qo‘yish huquqiga ega.
- Ulanish texnik imkoniyat mavjud bo‘lgandagina amalga oshiriladi.
- Tarif rejalarini faqat shaxsiy ehtiyojlar uchun mo‘ljallangan, tijoriy maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi.
- Internet tarmog‘iga kirish xizmatlarining tariflarida kirish tezligi ko‘rsatilgan, chiqish tezligi ulanish texnologiyasiga qarab, farq qilishi mumkin.

“UNLIM” seriyasining bitta tarif rejasi doirasidagi Internet va IP-telefoniya xizmatlaridan foydalanish shartlari:

- Ushbu tarif rejalarida barcha xizmatlar (Internet, IP telefoniya) uchun yagona shaxsiy hisob mavjud.
- Abonent to‘loving hisob-kitob davri 1 (bir) oy bo‘lib, Abonentga telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish imkoni berilgan sanadan boshlab hisoblanadi. Hisob-kitob sanasi abonentning hisob-kitob davri uchun abonent to‘lovini yechib olish uchun boshlang‘ich nuqtadir. Abonent to‘lovi hisoblangan kuni (hisob-kitob sanasi) Abonentning shaxsiy hisobidagi qoldiq abonent to‘lovi miqdoridan, ulangan qo‘srimcha xizmatlar, shuningdek, avvalgi hisob-kitob davrida amalga oshirilgan pulli so‘rov-axborot xizmatlari, mahalliy va xalqaro qo‘ng‘iroqlar (keyingi o‘rninda - ko‘rsatilgan xizmatlar) bo‘yicha IP-telefoniya xizmatlari uchun mumkin bo‘lgan to‘lovlardan miqdoridan kam bo‘lmasligi kerak.
- Yangi ulanishda abonent to‘lovi uchun mablag‘ yechib olinishi tarmoqdagagi birinchi hodisa (qo‘ng‘iroq, ma’lumotlarni uzatish jarayoni) sodir bo‘lgan paytdan boshlanadi. Keyingi ushlab qolinadigan oylik abonent to‘lovi yangi hisob-kitob davrining birinchi kunida, shaxsiy hisobda abonent to‘lovi va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun ushlab qolishga yetarli mablag‘ mavjud bo‘lgandagina amalga oshiriladi.
- Agarda Abonentning shaxsiy hisobida abonent to‘lovi yechib olinadigan kuni (hisob-kitob sanasida) yangi hisob-kitob davri va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun abonent to‘lovini to‘lashga yetarli mablag‘ bo‘lmasa, telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish ko‘rsatilgan davr uchun abonent to‘lovini yechib olish uchun yetarli mablag‘lar Abonent tomonidan to‘lanmagunga qadar, ogohlantirishlarsiz to‘xtatiladi.
- Agar abonent belgilangan to‘lov kunida to‘lovlarni amalga oshirmsa, xizmatlar “To‘lovni kutish” holatiga o‘tkaziladi va Abonentning hisob-kitob davri keyingi abonent to‘lovini to‘lash sanasiga o‘tkaziladi.
- Raqamni almashtirish (IP-telefoniya xizmatlari bo‘yicha) o‘rnatilgan tartibda UZTELECOM sotuv va xizmat ko‘rsatish ofislarida amalga oshiriladi.
- IP-telefoniya xizmatiga ega bo‘limgan boshqa tarif rejalaridan o‘tgan amaldagi abonentlar, shuningdek, bir vaqtning o‘zida alohida tarif rejalarida Internet va IP-telefoniya xizmatlariga ega bo‘lgan abonentlar UZTELECOM sotuv va xizmat ko‘rsatish ofisiga murojaat qilib, IP telefoniya xizmatiga ulanishlari mumkin

- IP-telefoniya xizmatlarini o'z ichiga olgan UNLIM seriyasidagi tarif rejasidan Internet xizmatlari uchun boshqa tariflar to'plamidan tarif rejasiga o'tishda IP-telefoniya xizmatlari o'chirib qo'yiladi. IP-telefoniya xizmatlarini alohida tarif rejasida tiklash uchun siz shartnomani uzaytirish uchun UZTELECOM sotuv va xizmat ko'rsatish ofisiga murojaat qilishingiz kerak.
- Ko'rsatilgan tariflar doirasida xizmatlarni taqdim etish va ularni tarifikatsiyalashning boshqa shartlari qoidalar va shartlarda nazarda tutilgan

